



SAIDA ZUNNUOVA IJODIDA RITORIK SO'ROQ GAPLARINING QO'LLANILISHI

Xo'jamberdiyeva Go'zalxon Zafarjon qizi,

QDU 10.00.01 O'zbek tili mutaxassisligi 3 – kurs tayanch doktoranti

guzalxonsoliyeva5@gmail.com

+998932725554

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 35

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1466>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА/ KEYWORDS

ritorik so'roq gap, badiiy uslub, poetik sintaksis, lirik kechinma, emotsionallik, Saida Zunnunova ijodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Saida Zunnunova ijodida ritorik so'roq gaplarning qo'llanilishi, ularning badiiy-uslubiy xususiyatlari va poetik vazifasi tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida ritorik so'roqlar lirik kechinmalarni chuqurlashtirish, ayol qalbidagi iztirob va orzularni ochib berish, muhabbat, Vatan va ona mavzularini ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, ritorik so'roq gaplar shoiraning individual uslubini belgilovchi muhim sintaktik vositalardan biridir. Ritorik so'roq gaplar adib ijodida nafaqat ifodaviy vosita, balki badiiy-estetik ta'sir kuchini oshiruvchi muhim sintaktik qurilma sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqolada ritorik so'roqlarning obraz yaratishdagi o'rni, qahramon ruhiy kechinmalarini ochib berishdagi ahamiyati hamda muallifning individual uslubini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Bunday gaplarning muhabbat, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy masalalarni ifodalashdagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kirish. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori tilshunoslik sohasida ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Millatimizning ruhi bo'lgan o'zbek tili qurilishining ilmiy-nazariy talqini milliy mafkura va g'oyalarimizning ravnaqi uchun muhimdir. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev «Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimdakin o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin.» - deb o'rinli fikrlarni bildirdilar. Darhaqiqat, shoir va yozuvchilarimiz asarlariga quloq tutar ekanmiz bu fikrlar qanchalar o'rinli ekanligiga guvoh bo'lamiz [1,65]. Jumladan, xalqimizning suyuqli va dilbar shoirasi – Saida Zunnunova o'zining betakror ijodi va ijtimoiy faoliyati bilan yurtdoshlarimiz qalbida fidoiylilik tuyg'ularini uyg'otib, farzandlik burchini anglagan holda yosh avlod ongi, qalbi va shuurida vatanga muhabbat, o'zaro hurmat, chin mardlik, o'zbekona qadriyatlar kabi insoniy fazilatlarini uyg'ota oldi. Shoir she'rlarida samimiyat, qalb yaqinligi, muhimi falsafa mujassam. Shu bilan birgalikda, shoir ijodining til xususiyatlarini o'rganish ham tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Saida Zunnunova she'rlarining sintaktik xususiyati ham o'ziga xos bo'lib, bu holatni shoir she'riyatidagi gap shakllarining ifodalashida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ritorik so'roq gaplarning qo'llanilishidagi o'ziga xoslikni shoirning ichki kechinmalarini buyruq, tasdiqlash, tashvish, kuchli hayajon, inkor, tasdiq, taajjub kabi ma'nolar orqali ifodalashiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim ro'l o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq obrazlari sintaktik-stilistik figuralar deyiladi [2, 40]. Sintaktik stilistik figuralar ifodali nutqning shunday vositalari sanaladiki, ular vositasida tuzilgan nutq shakli to'liq, bir butun sintaktik konstruksiyadan iborat bo'ladi. Bu esa ularning eng xarakterli umumiy belgisidir. Sintaktik-stilistik figuralar badiiy adabiyotda ifodalilik hosil qiluvchi va ma'lum bir uslubiy vazifa bajaruvchi intonasion-sintaktik usullardandir. Sintaktik-stilistik figuralar nutqning emotsionalini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlardan iborat bo'lib, ularga parallelizm, takror va uning utrlari, antiteza, inversiya ellipsis, gradatsiya kabilarni kiradi [3, 230].

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda *ritorik so'roq gaplar* – badiiy matnning emotsional - ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplardir. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar takibida nahotki, axir so'zlari keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishi, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi.

Ritorik so'roq gaplarning quyidagi ma'nolarni ifodalovchi 7 ta turi mavjud:

- 1) Ritorik-tasdiq;
- 2) Ritorik-inkor;
- 3) Ritorik-taajjub;
- 4) Ritorik-tashvish;
- 5) Ritorik-g'azab;
- 6) Ritorik-gumon;
- 7) Ritorik-kuchli hayajon [4, 89].

Natijalar. Quyidagi she'r nafaqat shoirni balki kitobxonni ham cheksiz savollar og'ushida qoldiradi. Umuman olganda, shoir ritorik so'roq misralari bilan kitobxon tafakkurini band qilishni xush ko'radi:

Onangni sevgin, deb o'rgatmoq g'alat,
Xoin qalb shu so'zdan o'nglanarmidi?
Sut bilan kirmagan bo'lsa muhabbat,
Nomusni bilarmi, to'lg'onarmidi?

Shoir Onani sevgin deb o'rgatish g'alati va erish holat ekanligini, xoin, sotqin qalbning bu so'z bilan sira ham o'nglanmasligini aytib o'tadi. Agar insonga mehr, muhabbat, odamiylik kabi his – tuyg'ular ona suti bilan kirmagan bo'lsa ming harakat qilsang ham nomus, or kabi tuyg'ular unga mutlaqo begona bo'lishini qalbida achinish tuyg'usi bilan she'r ga jo qiladi.

Asalchi ham chiqmish shahardan.

Meni asl asal yesin deb

Bunda tinmas erta sahardan.

Tashna bo'lsa zor bo'lmasin deb.

Buloq ko'zin ochib ketgan kim?

Shoir tong saharni tasvirlash bilan boshlangan ushbu she'r o'quvchiga o'ziga xos bir ma'naviy ozuqa beradi desak aslo yangilishmaymiz. Tongni tasvirlar ekan, asalchining ham u uchun toza asal yetkazib berish uchun shahardan chiqishini tasvirlash orqali satrlarni davom ettiradi.

Do'lanalar yonarmi lov – lov?

Yon bag'irlar afsona – ku naqd,

Irmoqlari sutmi yo ko'zgu?

Xuddi gulxan bunda har daraxt,

Xazonlari uchqunning o'zi.

Shoir so'roq berar ekan, javobi ham shu savollarning bag'rida yotadi. Aytmoqchi bo'lgan fikrini javobi o'zi bilan bo'lgan ritorik so'roq gaplar vositasida ifodalash she'rning ta'sirchanligini oshirishda asosiy uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shoiraning ritorik so'roq gaplar vositasida betakror yaratgan she'rlari orasida “Yor o'tdimi?” nomli mumtoz she'ri ham bor. She'r abadiy javobi topilmaydigan javobi yurakda, yurakning tub-tubida his-tuyg'ular orasida yashaydigan savollar bilan boshlanadi:

Gullar yuzida xanda – bu bog'dan yor o'tdimi,

Odatin qilmay kanda, yana bedor o'tdimi?

Yellar nechun sarsari, ketolmaydilar nari,

Ko'nglimning moh paykari ko'zi xummor o'tdimi?

Rayhonga rashq qilib gul, bag'ri qon bo'pti butkul,

Yana rayhon hidlab ul, bundan takror o'tdimi?
Har narsada nur, viqor, hatto tuproq baxtiyor,
Bir - bir bosib beozor, ul beozor o'tdimi?
Dilda takrorlab otin, tilab umr - u davlatin,
Soyasi bo'lib tag'in Saida zor o'tdimi?

Yuqorida keltirilgan satrlarda hijron motivi yetakchi o'rinni egallaydi. She'r oshiqning bog'da gullarning yuzidagi tabassumini ko'rib, hoynahoy bu yerdan yorim o'tgandir degan o'y hayollari bilan boshlanadi. Keyingi baytlarda esa nafaqat gullar balki yellar ham xushnud ekanligini, balki yellar ham ko'nglimning mohi paykari shu yerlardan o'tganligidan o'zida yo'g' shod ekanligini hayol qiladi. Yorning bog'dagi boshqa gullarni emas, aynan rayhonni hidlagani boshqa gullarning rashqini keltirib, bag'irlari butkul qon ekanligini aytib o'tadi. Yorning bu yerlarni bir - bir bosib o'tishidan hattoki oyog'i ostidagi tuproq ham baxtiyor ekanligini, oshiq esa doimo uning ismini tilidan qo'ymay takrorlab, unga uzoq umr tilab, doimo uning soyasi bo'lishga ham rozi ekanligini misralar orqali keltirib o'tadi.

Ammo birov bo'lsa, siposan biram,
Go'yo bermagandek bo'lib e'tibor,
Nahotki bilmayсан, birovga ko'z - ko'z
Qilmoqqa shu ishqdan afzal nima bor?!

Oshiq yuraklarning iztirobli kechinmalari ham majnun tabiat shoiraning e'tiboridan chetda qolmagan, albatta. Oshiqning dard-u alamlarini, yurakdagi yorga bo'lgan mehrini, sevgi va his-hayajonini, orzu-o'ylari va xayollarini quyidagi misralarda o'zini aybdor sezish hamda tasdiqlash orqali ritorik-tasdiq aks-ettirilganligini kuzatish mumkin.

Bir vaqtlar o'tlirib - o'tlirib o'ylardim gohi :
Qiziq, kim bo'larkin umr yo'ldoshim,
Ko'nglim, hislarimni anglarmikan u,
Koyitib to'kmasmi ko'zimdan yoshim?
Bilmasdim, kim o'zi va yashar qayda,
Lekin hurmatini saqlar edi dil.
Yonimda sezardim uni har joyda,
O'ylardim ko'ziga boqsam, deb dadil.
Sen ham shundaymidir, ayt - chi, azizim,
Sevganmidir meni ko'rmasdan turib?
Suvlar yoqasida xayol surib jim,
Izlarmidir meni bog'larda yurib?
Gullarga shivirlab ishqing, siringni,
Vafo - sadoqatdan surganmisan o'y?
Yo'qsa, maqtamagin menga ko'nglingni,
Yo'qsa, muhabbatdan gapirmayoq qo'y.

Ushbu she'rda ham shoir dastlab bolaligidagi o'y hayollarni qog'ozga tushiradi. Bir vaqtlar umr yo'ldoshi kim va qanday bo'lishi haqida o'ylar ekan, ko'nglini og'ritib yig'latmasmikan degan fikrlar hayoliga quyundek o'rmashib oladi. Yoriga murojaat qilib shunday savollar uni ham hayolidan o'tgan - o'tmaganligini so'roqqa tutadi.

Sening xayolingga qalb sho'ng'igan dam
Seni o'yladim - u rohatbaxsh shamol,
Yuzdan ajinlarni sidirib ketdi.
Sochga oralagan oqni yuldimi,
Harqalay, yoshlikni qidirib ketdi.
O'ylayman, o'ylayman, ne uchun seni,
Unutib bo'lmaydi, ne xislatig bor?!
Sababi, azizim, ko'ngling va ishqing
Juda toza ekan, juda beg'ubor.

Ushbu she'r ham muhabbat haqida. Shoir hayoliga birdan yoshlikdagi muhabbati keladi va bu o'ylar yuzdagi ajinlar, sochdagi oqlarni yulib yoshlikni qidirib ketdi deya ta'rif beradi. Shoir qancha harakat qilsa ham uni unuta olmasligining sababi muhabbatning toza, sof, samimiy, beg'uborligida deb biladi.

Asalmisan, qandmisan,
G'azal, muhabbatmisan?
Muncha shirinsan o'zing,
Jonimga payvandmisan,
Uxla, yulduzim, alla.

Dunyodagi eng orombaxsh, quloqqa yoqimli eshitiladigan qo'shiqlardan biri bu - alladir. Har bir ayol farzandli bo'lgach birinchi navbatda farzandining tinch, osuda, miriqib uxlashi uchun albatta unga atab alla bitadi. Deyarli har bir onaning o'ziga tegishli bo'lgan o'z allasi bor desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Alla bu onaning farzandining baxt - u kamoli uchun bitilgan bir qo'shiqdir. Shoir ham o'z farzandiga atab alla yozish orqali ritorik so'roq gaplardan unumli tarzda foydalangan.

Qadamlar, qadamlar og'ir qadamlar,
Ko'zlar pardasiga qalqan achchiq yosh.
Eng so'nggi safarga kimni uzatar,
Hamkasbmi, qo'shnimi yoki qarindosh?

O'z - o'ziga shunday berolsa hisob:
Dardin eshitdingmi tirikligida?
Biron shodlik kuni gul tutganmidir?
Yoki o'sha kunni unutganmidir?
Qadriga yetdingmi tirikligida?
Shu so'roqqa tutsa ko'nglimiz bizni,
Balki o'lim yana ketardi yiroq.
Odamlar qadrlang bir - biringizni,
Gul ham, muhabbat ham tirikka kerak.

Shoiraning asl dardi - ritorik so'roq gaplar ortidagi javobga yashiringan ushbu she'rda inson qadri yuksaklarga ko'tarilgan ya'ni uni dunyodan ko'z yumganida emas, balki hayotlik chog'ida qadriga yetish kerakligi g'oyasi ilgari surilgan. Og'ir qadamlar bilan odamlarning birin - ketin yurib kelishi tasviri bilan boshlangan she'rni o'qigan har bir kitobxonni chuqur o'yga toldiradi. So'nggi manzilga kuzatilayotgan inson kimningdir jigari, kimningdir do'sti, kimningdir hamkasbi... Hammaning ko'zida yosh qalqigan. Tabiatning bebaho ne'mati bo'lgan gullar ham hattoki sovuq bo'lib ko'rinadi va hozir tabiatning qaysi fasli ekanligi hech kimga qiziq emasligi hamma qayg'u da motamning jim - jit sukunati yurakni ezayotganligi tasvirlari keltiradi. Shu vaqtda har bir inson o'z - o'ziga savol berishi kerakligini shoir ta'kidlab ketadi. Ya'nikim, insonlarning tiriklik chog'ida bir - birlarini asrab - avaylab, dillarini xufton qilmasdan, shodan hamda g'am - qayg'uli kunlarida ham yonida birga bo'lishlarini xohlaydi. Chunki gul ham, mehr - muhabbat ham faqat tirik insonga kerak.

Muhokama. Shoir ijdodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ritorik so'roq gaplar shoiraning badiiy tafakkurida muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ritorik so'roqlar ko'pincha bevosita javob talab qilmaydi, balki o'quvchini mushohadaga chorlaydi, fikrni chuqurlashtiradi va matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiradi. Bu jihat Zunnunova poetikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Shoiraning she'riy matnlarida ritorik so'roq gaplar lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochib berishda samarali xizmat qiladi. Ayniqsa, muhabbat, sadoqat, hijron, Vatanga mehr kabi mavzularda so'roq shakllari ruhiy iztirob va hayajonni kuchliroq ifodalash imkonini beradi:

Qizim qo'shiq kuylaydi...
Irmoqlar shovullarmi yo qushlarning na'masi,
Quyoshning shu'lasimi dilim tutgan kaftida?
Go'yo deydi: ola qol rohatlarning hammasin,
Chidash bera olsang bas, muhabbati, taftiga.
Qizim qo'shiq kuylaydi...
Yo tabiat gullarga rang ulashar shu bugun,
Yo zilol suv bag'riga qaldirg'och to'sh urdimi?
Subhidamning yellari o'pib daryolar yuzin,
Gulshanlarning atrini ufurishga turdimi?
Qizim qo'shiq kuylaydi...
Yulduzlar jimirlarmi yo sharshara to'zoni?
Ey naqqosh, atlasingga jilvasini ko'chirgil!

Yuqoridagi misralar shoiraning farzandiga bo'lgan mehr muhabbatini aks ettirgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Misralar orasida ritorik so'roq gaplarning ham go'zal namunalarini yaratgan. Shoir qizining qo'shiq kuylashi jarayonini irmoqlarning shovullashimi yoki qushlarning go'zal bir navosimi deya o'z - o'ziga savol beradi. Aynan shu bugun quyoshning o'zgacha charaqlashi - yu, tabiatning aynan shu kuni gullarga rang ulashganligini, yoki zilol suv atrofida qaldirg'ochlarning betinim qanot qoqishiga ta'rif berib ketadi. Tonggi shabbodaning daryo yuzini o'pib o'tib, gullarning iforini chor - atrofga yoyishini go'zal o'xshatishlar bilan ta'riflab o'tadi.

Po'lat zangor g'irotni bog'lab olsam sehrim bilan.
Chamanlarning tarovatin olib beray mehrim bilan.
Tonggi shabnam ho'l qilibdi beqasam to'n yenglarini.
O'zi doim sardor bo'lib, boshlab yurar tenglarini
Oq oltinning gardi qo'nmish payvasta ul qoshlariga.
Do'ppi tiksam suyib - suyib kiyarmikan boshlariga?!

Dalalardan mujda kelar shamollarning qanotida.
Unda yorim paxta terar po'lat zangor g'irotni.
Keltirilgan misralarda shoir yorining dalada javlon urib paxta terish holatini tasvirlab berishga harakat qiladi. Traktorni - zangori g'irotni deya atab, uni sehiri bilan bog'lab olib, chamanlarning tarovatini esa mehri bilan olishini bayon qiladi. Barchamizga yaxshi ayonki, paxta yig'im terimi tong sahardan to kechgacha davom etadi. Tongda esa tabiiyki yerdagi o't - o'lan, maysalami shudringlar egallab oladi. Shoir ham tong azonlab paxta terimiga ketgan yorining to'ning yengini shudring tufayli ho'l bo'lganligini, tengqurlariga doimo sardor - yetakchi bo'lishini, oq oltin - ya'ni paxtaning gardi qoshlariga

qo'nganligini keltirib o'tadi. Yori uchun do'ppi tiksam kiyarmikan degan o'ylar uning qalbini yemiradi.

Xulosa. Saida Zunnunova ijodida ritorik so'roq gaplar muhim badiiy-sintaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali shoira lirik qahramonning ruhiy holatini chuqur ochib beradi, emotsional ta'sirni kuchaytiradi va o'quvchini mushohadaga undaydi. Ritorik so'roq gaplar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiyatini ta'minlovchi leksik vositalar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. -Toshkent, 2009
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. -T., 1995. 40-bet.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I. O'zbek tili stilistikasi. -T., 1983. 230-bet.
4. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filologiya fanlarinomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Andijon, 2003.
5. Saida Zunnunova. She'rlar. -Toshkent, 1982.

shoiraning individual uslubini belgilovchi asosiy poetik elementlardan biri bo'lib, uning she'riyatiga samimiylik, dramatism va obrazlilik baxsh etadi.

6. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Farg'ona, 2019.
7. Toshxo'jayeva Sh. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. -Farg'ona, 2017.
8. Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -Toshkent. 2007
9. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2007.